XALQ DEPUTATLARI OLMALIQ SHAHAR KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 11 - yanvar VI-63-3-10-147-K/23 Olmaliq shahar hokimligi

Olmaliq shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32-1020-sonli xati, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga asosan Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 27, 99-moddasi, “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2022-yil 29-dekabrdagi 01/20-32-1020-sonli xati, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Olmaliq shahrining 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risidagi masala Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashi doimiy komissiyalarining 2022-yil 26-dekabrdagi qo‘shma majlisida muhokama qilinganligi, Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining 2022-yil 30-dekabrda o‘tkazilgan navbatdagi 63-

sessiyasida deputatlar tomonidan atroflicha muhokama qilingaligi va ma’qullanganligi, Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari muhokamasi (regulation.gov.uz) portalida (ID 74347) jamoatchilik muhokamasidan o‘tkazilganligi va muhokamalar jarayonida qaror loyihasi bo‘yicha fuqarolar tomonidan 1 ta taklif kelib tushganligi inobatga olinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasining “2023-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida” 2022-yil 30-dekabrdagi O‘RQ-813-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2023-yil 6-yanvardagi VI-67-1-10-0-K/23-sonli qaroriga asosan Olmaliq shahar mahalliy budjetining 2023-yil uchun daromadlari **129 mlrd. 779,1 mln.so‘m** va xarajatlari **182 mlrd. 457,2 mln.so‘m** prognoz qilinganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. 2023-yil uchun shahar mahalliy budjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2023-yil uchun shahar budjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo‘yicha viloyat mahalliy budjeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budjetlarining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda Toshkent viloyati bo‘yicha G‘aznachilik boshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

6. 2023-yil uchun viloyat budjetidan shahar mahalliy budjetiga ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini shahar mahalliy budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi Qonunda belgilab qo‘yilganligi inobatga olinsin..

7. 2023-yil uchun shahar budjeti zaxira jamg‘armasi hajmlari 1 mlrd. 721,2 mln.so‘m miqdorida belgilansin.

Shahar budjetining 2023-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli budjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Toshkent viloyati viloyat budjetining, shahar budjetni ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ularga ajratiladigan budjetlararo transfertlarning prognozidan oshgan qismi uchun tegishli budjetlarining zaxira jamg‘armalar miqdorlariga aniqlashtirish kiritilmasligi inobatga olinsin.

8. 2023-yil uchun shahar budjeti shaxsiy g‘azna hisobvaraqlarida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 1 mlrd. 033,8 mln.so‘m

deb belgilansin.

9. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahallalar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga
0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari **4-ilovaga** hamda yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

10. O‘zbekiston Respublikasining mazkur Qonuni bilan 2023-yilda Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budjetlarni boshqarishda, xususan mahalliy budjet xarajatlarini hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, Qonunga muvofiq 2023-yilda quyidagi soliq turlari:

a) shahar va tumanlar budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlaridan tushadigan tushumlar.

b) quyidagilar viloyatning viloyat mahalliy budjetiga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlardan, g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) viloyat budjeti hamda shahar va tumanlar budjetlari o‘rtasida quyidagi soliq turlari bo‘yicha taqsimlanadi:

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq bundan mustasno).

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2022 yil 1 iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq shahar va tumanlar mahalliy budjetlariga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

11. O‘zbekiston Ruspublikasi Prezidentining 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini

kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-sonli Qaroriga asosan 2023-moliya yilidan boshlab:

a) «Obod qishloq» va «Obod mahalla» dasturlari doirasida moliyalashtiriladigan tadbirlar jamoatchilik fikri asosida «Ochiq budjet» axborot portali orqali ovoz berish yo‘li bilan aniqlanishi;

Bunda, aholi tomonidan amalga oshirilishi taklif etilayotgan tadbirlar har bir mahalla bo‘yicha bitta loyihalar paketi shaklida ovozga qo‘yilishi;

b) Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetida shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning 30 foizi tuman (shahar)larda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun tuman (shahar)lar Fuqarolar tashabbusi jamg‘armalariga mavjud aholi soni va mahallalar sonidan kelib chiqib, teng ulushlarda yo‘naltirilishi;

v) tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari uchun tuman (shahar) budjetlarining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilishi belgilanganligi;

g) “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli budjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirilishining yangi tartibi ishlab chiqilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

12. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Begiev), Moliya bo‘limi mudiri (D.Umarov), Davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov), shahar hokimligi va mas’ul boshqarma va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjeti prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatini yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

chorak yakuni bilan ajratilgan mablag‘larning iqtsod qilingan qismi doirasida xarajatlar smetasiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida taklif berish;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

13. Shahar davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlillar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

Bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Olmaliq shahar bo‘limi (A.Shokirov) shahar davlat soliq inspeksiyasi (A.Ergashov) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvatlash bo‘limi (X.Komolov), shahar hokimligi (Sh.Begiev) jismoniy shaxslarning yer va mol-mulk soliqlari bo‘yicha joriy hisoblangan soliqlarni hamda ushbu soliqlardan mavjud soliq qarzdorliklarini undirish yuzasidan soliq organlariga amaliy yordam ko‘rsatsin.

16. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Toshkent viloyat hududiy boshqarmasi qoshidagi Bo‘sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Olmaliq shahriga biriktirilgan xodimi (A.Saydaliyev), shahar hokimi o‘rinbosari, investitsiya va tashqi savdo bo‘limi (Sh.Abdulxayev), Davlat kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi Olmaliq shahar filiali (I.Artikov)

bilan birgalikda;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra shaharda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki obyektlari ro‘yxatini shakllantirish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob’ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

xususiylashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki obyektlarini «e-ijro auksion» maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirsin.

17. Shahar Ichki ishlar bo‘limi (J.Manazarov), shahar yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (D.Movlonov), Olmaliq shahar Adliya bo‘limi Davlat xizmatlari markazi (Q.Xolqo‘ziyev) hisoblangan boj, jarima va yig‘imlarni o‘z vaqtida o‘rnatilgan tartibda budjetga undirish choralarini ko‘rib borsin.

18. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etishi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

19. Shahar hokimligi:

shahar budjetlari jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga

yo‘naltirsin.

Bunda, Yoshlar yetakchilari, shahar hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda mahallalardagi hokim yordamchilari, mahalla fuqarolar yig‘inlari raislari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

Shahar hokimligi Axborot xizmati (D.Ro‘ziyeva) mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borsin.

20. Shahar hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Begiyev) tegishli tashkilot rahbarlari:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

21. Shahar hokimligi Axborot xizmati (D.Ro‘ziyeva) qonunchilikda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

22. Olmaliq shahar hokimligi axborot xizmati raxbari (D.Ro‘ziyeva):

mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini va shahar hokimligining (www.olmaliq.uz) rasmiy web-saytiga joylashtirilishini ta’minlash vazifasi yuklatilsin.

23. Ushbu qaror imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

24. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Sh.Ziyaxodjayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash Rahbari **Q.Xamdamov**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-63-3-10-147-K/23-son
qaroriga
1-ilova

Olmaliq shahar budjetining 2023-yil daromadlari va xarajatlari prognozlari

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Xarajat
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar - jami**	**136 703 721,0**
1.1	Maorif	18 769 354,0
	- maktabgacha ta’lim	7 479 098,0
	- umumiy ta’lim	11 290 256,0
1.2	Sog‘liqni saqlash	101 654 784,0
	Tibbiy-ijtimoiy xizmatlar uchun xarajatlar	-
1.3	Madaniyat va sport, ommaviy axborot vositalari	6 637 110,0
	- madaniyat va ommaviy axborot vositalari	1 441 405,0
	- sport	5 195 705,0
1.4	Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar	9 440 623,0
1.5	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	46 000,0
1.6	Ijtimoiy ko‘nikma markazlari	155 850,0
2.	**Iqtisodiyotga xarajatlar**	**13 272 661,0**
2.1	Obodonlashtirish	11 533 621,0
2.2	Veterinariya qo‘mitasi	421 925,0
2.3	Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun	1 317 115,0
3	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash**	**18 670 422,0**
3.1	Davlat boshqaruv idoralari	18 670 422,0
4	**Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**3 482 635,0**
5	**Zahira jamg‘armasi**	**1 721 294,0**
6	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**8 606 472,0**

Daromad turlari		**Summa ming so‘m**
1	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	9 277 711,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	4 523 310,0
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	23 717 693,0
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	2 265 000,0
5	Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	3 274 436,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 930 250,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	6 660 131,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	11 390 331,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	7 663 347,0
10	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	731 750,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	27 324 184,0
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	771 211,0
JAMI		**107 529 354,0**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**22 249 795,0**
13	Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo	9 001 182,0
14	Mobil aloqa xizmati	3 860 984,0
15	Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i	9 387 629,0
JAMI DAROMAD		**129 779 149,0**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-63-3-10-147-K/23-son qaroriga
2-ilova

Olmaliq shahar umumdavlat soliqlaridan shahar mahalliy budjetlariga ajratmalar me’yori

T/r	Shahar va tumanlar nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	Benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i	Aylanma-dan olinadi-gan soliq	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq)	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno)
1	**Olmaliq shahri**	5	5	20	20	20	30	25	100

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-63-3-10-147-K/23-son
qaroriga
3-ilova

Olmaliq shahar budjetiga 2023-yilda viloyat budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

T/r	Shahar nomi	Summa
1	Olmaliq shahri	**52 678 056,0**

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-63-3-10-147-K/23-son
qaroriga
4-ilova

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha mahalla fuqarolar yig‘inlari kesimida yer solig‘i stavkalari uchun 2023-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/r	MFY nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 ga uchun		Jismoniy shaxslar bo‘yicha, 1 kv.m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2023 yil uchun (so‘mda)
1	“Saxovat”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
2	“Olmaliqsoy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
3	“Koinot”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
4	“Yulduz”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
5	“Xamid Olimjon”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
6	“Mustaqillik”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
7	“Maxmudxo‘ja Bexbudiy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
8	“Alisher Navoiy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
9	“Qalmoqir”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
10	“Birdamlik”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
11	“Mirzo Ulug‘bek”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
12	“Kimyogar”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
13	“Shosh-Iloq”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
14	“Bo‘ston”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
15	“Ko‘rpasoy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
16	“Uvaysiy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
17	“Gultepa”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
18	“Cho‘lpon”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
19	“Do‘stlik”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
20	“Metallurg”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
21	“O‘zbekiston”	0.9	41 580,0	0.9	374,22

22	“Temur Malik”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
23	“Oydin”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
24	“So‘fi Olloyor”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
25	“Islom Karimov”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
26	“Bog‘aro”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
27	“Toshkent”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
28	“Terakli”	0.9	41 580,0	0.8	332,64
29	“Usmon Nosir”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
30	“Abdulla Qaxxor”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
31	“Abdulla Qodiriy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
32	“Xamza”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
33	“Namuna”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
34	“Abdulla Avloniy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
35	“Yangi hayot”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
36	“Muso Jalil”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
37	“Ibn Sino”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
38	“Ramazon”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
39	“Zarbuloq”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
40	“G‘ofur G‘ulom”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
41	“Kamalak”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
42	“Oltin”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
43	“Olmaliqovul”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
44	“Bobur”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
45	“Navro‘z”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
46	“Muqumiy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
47	“Furqat”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
48	“Axmad Yassaviy”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
49	“Tinchlik”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
50	“Sharof Rashidov”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
51	“Chambil”	0.9	41 580,0	0.9	374,22
52	Piskent tumanidan Olmaliq shahri hududiga o‘tgan “Namuna”	0.9	41 580,0	0.9	374,22

Xalq deputatlari Olmaliq shahar
Kengashining
2023 yil 11 yanvardagi
VI-63-3-10-147-K/23-son
qaroriga
5-ilova

Yuridik shaxslar bo‘yicha mol-mulk soliqlari uchun qo‘llaniladigan mutloq miqdorlari

T/r	Tuman va shaharlar nomi	Koeffitsient (mutlaq miqdor)	Belgilangan qiymat (so‘m)
1	Olmaliq shahri	1	1 000 000.0